

Havo kemasi bortida unutib qoldirilgan buyumlarni qanday qilib qaytarish mumkin

2022 11 May

Ko'pincha yo'lovchilar samolyotdan tushayotganlarida beparvolik qilib, yoki tiqilinchda shaxsiy buyumlarini qoldirib, chiqib ketishadi. Bagaj yoki shaxsiy buyumlar yo'qolganda harakat qilish tartibi mavjud. 'Uzbekistan Airports Handling' MCHJ bagaj qidirish guruhi boshlig'i Natalya Arapbayeva bunday vaziyatda nima qilish kerakligini tushuntirib berdi.

– Havo kemasi Toshkentga yoki boshqa istalgan shaharga kelib qo'ngach, bortkuzatuvchilar butun samolyotni aylanib, har bir yuk javonini va har bir o'rindiq ostini tekshirishlari kerak. Ular havo kemasida topilgan barcha buyumlarni I.Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportining "Lost and Found" (Bagaj qidirish) bo'limiga, agar havo kemasi boshqa shaharga kelib qo'ngan bo'lsa, aviakompaniyaning aeroportdagi vakolatxonasiga topshirishlari kerak. Yo'lovchilar yo'qolgan buyumlarini shu yerdan olishlari mumkin, – dedi Natalya Arapbayeva.

Toshkentda yo'lovchi yo'qolgan buyumini olishi uchun, haftaning istalgan kunida, kunning istalgan vaqtida +99878 1402914 raqamiga qo'ng'iroq qilishi, yoki yo'qolgan buyumni batafsil tavsiflagan holda claim@uzairways.com elektron manzilga so'rov yuborishi ham mumkin.

– Yo'lovchiga yo'qolgan narsa topilgani haqida xabar berilgandan so'ng, u pasporti va havo kemasiga chiqish talonini taqdim etib, shu kuniyoq uni olib ketishi mumkin. Yo'lovchilar tomonidan unutilgan buyumlar Toshkent aeroportidagi saqlash xonasida 3 oy davomida saqlanadi va shu muddat o'tgach utilizatsiya qilish uchun yuboriladi. Boshqa shaharlardagi vakolatxonalarda buyumlarni saqlash muddati boshqacha bo'lishi mumkin, – deydi Natalya.

Shuni esda tutingki, 2022-yil 1-maydan buyumlarni saqlash pullik bo'lib, kuniga 7 yevroni tashkil etadi.